O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT
JAHON TILLARI
UNIVERSITETI
100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi,
G-9A mavzesi, 21 uy, tel.: +998712301291

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
THE MINISTRY OF HIGHER AND
SECONDARY SPECIALISED
EDUCATION
UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY OF
WORLD LANGUAGES
Tashkent-100138, Kichik halqa yo'li str.,
G-9A-21, tel.: +998712301291

2021 yil "1" 12 №496

# BUYRUQ

Universitetda tahsil olayotgan Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning farzandlariga 2021/2022 o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish Davlat komissiyasining 2021-yil 3-noyabrdagi 9-son bayonining 5-ilovasiga muvofiq "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan farzandlariga 2021/2022 o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish Tartibi" ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (S.Abdullayev) va Bosh hisobchi (G'.Sharipov)ga:

1.1. Universitet "Temir daftarga" kiritilgan oilalarning farzandlarini aniqlash Komissiyasining 2021-yil, 22-noyabrdagi qaroriga muvofiq fakultetlar tomonidan tavsiya etilgan universitetda tahsil olayotgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning universitetda ta'lim olayotgan farzandlariga 2021/2022 o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berilsin.

*Asos: Universitet "Temir daftarga" kiritilgan oilalarning farzandlarini aniqlash Komissiyasi bayonnomasi*

2. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor ASLIGA TO'G'RI U.Azizov

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Temir daftarga" kiritilgan oilalarning farzandlarini aniqlash Komissiyasi yig'ilish**
**BAYoNNOMASI**

**2021 yil "22" noyabr** **Toshkent shahri**

| | |
|---|---|
| Raislik qiluvchi: | **H.Hakimov** – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, Temir daftarga" kiritilgan oilalarning farzandlarini aniqlash Komissiyasi raisi |
| Qatnashdilar: | **N.Jo'rayeva** – xotin-qizlar qo'mitasi raisi, a'zo; **S.To'ychiyev** – ATM rahbari, a'zo; **F.Mirzayev** – yurist, a'zo, **S.Egamov** – Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, **M.Muyidinov** – Yoshlar agentligining O'zDJTU yetakchisi, a'zo; **D.Xamdamov** – ingliz tili 1-fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **Z.Xasanov** – ingliz tili 2-fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **B.Raxmatov** – ingliz tili 3-fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **F.Sultanov** – ingliz filologiysi fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **Sh.Elnazarov** – sharq filologiysi fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **D.Hurramov** – roman-german filologiyasi fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **A.Dadaxanov** – rus filologiysi fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **S.Qodirov** – tarjimonlik fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **F.Eshmamatov** – media va kommunikasiya fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini, a'zo; **N.Xamraxanova** – magistratura bo'limi uslubchisi, a'zo. |

## KUN TARTIBI:

1. Fakultetlar tomonidan taqdim etilgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan farzandlariga 2021/2022 o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish Tartibi" ijrosini ta'minlash va ushbu yo'nalishdagi faoliyatni yanada samarali yo'lga qo'yish to'g'risida

---

**EShITILDI:** Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Temir daftarga" kiritilgan oilalarning farzandlarini aniqlash Komissiyasi raisi H.Hakimovning axboroti: - So'nggi yillarda yurtimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlangan va nogironligi bo'lgan shaxslar qo'llab-quvvatlanmoqda va bu borada amalda ko'p ishlar oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrda qabul qilingan "Aholini kam ta'minlangan

qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3268-sonli Qarori hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son Farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5020-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 585-sonli qaroriga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har yili 100 nafardan xotin-qizlar uchun mahalliy budjetning qo'shimcha mablag'lari hisobidan to'lanishi ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish Davlat komissiyasining 2021-yil 3-noyabrdagi 9-son bayonining 5-ilovasiga muvofiq "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan farzandlariga 2021/2022 o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasini Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish Tartibi" tasdiqlandi. Bu ham ilm o'rganish istagida bo'lgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotganidan darakdir. Ushbu tartib asosida fakultetlar tomonidan Komissiyaga "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning universitetimizda ta'lim olayotgan farzandlari ro'yxati va ularning hujjatlari taqdim etildi.

| № | F.I.Sh | Fakultet guruxi | Doimiy yashash manzili | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Ikromov Muhammadali To'lqinjonovich | Ingliz filologiyasi fakulteti (2147) | Surxondaryo viloyati Denov tumani Guliston MFY 67 uy 19 xonadon | Temir daftarda turuvchi oila |
| 2. | Eraliyeva Dilyora Nuraliyevna | Ingliz tili 2 fakulteti (MT2-2108) | Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani. Qo'shtamg'ali MFY. Oytamg'ali QFY | Temir daftarda turuvchi oila |
| 3. | Azizova Aynur Muxash qizi | Ingliz tili 2 fakulteti (MT2-2113) | Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani Mustaqillik ko'chasi 4-uy 9 - xonodon | Temir daftarda turuvchi oila |
| 4. | Xamidova Shoxsanam Abdixalim qizi | Ingliz tili 2 fakulteti (XT2-2127) | Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani Gurjob QFY | Temir daftarda turuvchi oila |
| 5. | Botirov Nodirjon Botirovich | Ingliz tili 2 fakulteti (XT2-2113) | Toshkent viloyati. Yuqorichirchiq tumani. "Yashnabod" mahallasi Sofdil ko'chasi 15 uy | Temir daftarda turuvchi oila |
| 6. | Bekmurzayeva Maxfuza G'ulomovna | Ingliz tili 2 fakulteti (XT2-2110) | Surxondaryo viloyati, Sho'rchi | Temir daftarda turuvchi oila |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | tumani,"Egachi" mahallasi | |
| 7. | Muxammadov Doniyorbek Saydolim o'g'li | Ingliz tili 3 fakulteti | Andijon viloyati Paxtaobod tumani | Temir daftarda turuvchi oila |
| 8. | Rustamova Xilola Sherzod qizi | Ingliz tili 3 fakulteti | Buxoro viloyati Qorako'l tumani | Temir daftarda turuvchi oila |
| 9. | Xudoyberdiyeva Zilola Murodjon qizi | Ingliz tili 3 fakulteti | Toshkent viloyati Angren shaxri | Temir daftarda turuvchi oila |
| 10. | Yuldosheva Parizoda Alisherovna | Ingliz tili 3 fakulteti | Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar | Temir daftarda turuvchi oila |
| 11. | Madoripova Dilzoda O'ktamjonovna | Ingliz tili 3 fakulteti | Farg'ona shahar Iftihor MFY Mustaqillik ko'chasi 85 b uy | Temir daftarda turuvchi oila |
| 12. | Meliqulov Mahmud Jumanazarovich | Ingliz tili 3 fakulteti | Surxondaryo viloyati Denov tumani | Temir daftarda turuvchi oila |
| 13. | Eminjonova Nazokat Nurmuxammad qizi | Roman-german fakulteti | Farg'ona viloyati Beruniy mahalla Vodil ko'chasi 38 uy | Temir daftarda turuvchi oila |

Shu munosabat bilan universitetda tahsil olayotgan barcha fakultetlar tomonidan tavsiya etilgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan farzandlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Temir daftarga" kiritilgan oilalarning farzandlarini aniqlash Komissiyasi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Moliya iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (S.Abdullayev), Bosh hisobchi (G'.Sharipov) va reja va moliya bo'limi boshlig'i (T.Kim)larga:

1.1. Fakultetlar tomonidan tavsiya etilgan universitetda tahsil olayotgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning universitetda ta'lim olayotgan farzandlariga 2021/2022 o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berilsin.

1.2. "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning universitetda ta'lim olayotgan farzandlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etilsin va Davlat budjetidan tegishli mablag' ajratish yuzasidan murojaat qilinsin.

2. Mazkur qaror ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Raislik qiluvchi** H.Hakimov

**Kotib** S.Egamov